

O‘SIMLIK VA SINTETIK GIYOHVAND VOSITALARI VA MODDALARI BO‘YICHA TADQIQOT O‘TKAZISHNING NAZARIY JIHATLARI

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
Kriminalistik ekspertizalar kafedrasida katta o‘qituvchisi, podpolkovnik*

Haydarov Ilhom Yusupovich

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
kunduzgi ta’lim 2-o‘quv kursi 229-guruh kursanti, safdor*

Burxoniddinov Nurmuhammad Halimjon o‘g‘li

ANNOTATSIYA: ushbu ilmiy maqolada o‘simlik va sintetik giyohvand vositalari va moddalari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazishning nazariy jihatlari yuzasidan kelib chiquvchi bir qancha muammolar nuqtayi nazaridan atroflicha yondashilgan hamda giyohvand moddalari, ularning zararli ta’siri jamiyatda qanday ahamiyat kasb etishi, ushbu jarayonlarning mamlakatlar o‘rtasida global miqyosdagi dolzarbligi, o‘simlik va sintetik giyohvandlik vositalari inson organizmi, ijtimoiy muhit va iqtisodiy tizimga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, shuningdek o‘simlik va sintetik giyohvand vositalari va moddalari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazishning zamonaviy usullari haqida mavzu yoritilib o‘tilgan.

KALIT SO‘ZLAR: o‘simlik giyohvand vositalari, sintetik giyohvand vositalari, Cannabis sativa, Cannabis resin (Gashish), Opium, psixofarmakologik yondashuv, biologik yondashuv, ijtimoiy va iqtisodiy yondashuv, metamfetamin, fentanil.

АННОТАЦИЯ: в данной научной статье подробно рассматривается ряд проблем, возникающих из теоретических аспектов исследования растительных и синтетических наркотиков и веществ, а также значение наркотиков и их вредное воздействие на общество, актуальность этих процессов среди стран в глобальном масштабе, негативное влияние растительных и синтетических наркотиков на организм человека, социальную среду и экономическую систему, а также важность исследований растительных и синтетических наркотиков и веществ. Раскрыта тема современных методов.

КЛЮЧИВЫЕ СЛОВА: препараты растительного происхождения, синтетические наркотики, Cannabis sativa, смола каннабиса (гашиш), опиум, психофармакологический подход, биологический подход, социально-экономический подход, метамфетамин, фентанил.

ANNOTATION: in this scientific article, a number of problems arising from the theoretical aspects of research on herbal and synthetic drugs and substances are approached in detail, and the importance of drugs and their harmful effects in society,

the relevance of these processes among countries on a global scale, the negative impact of herbal and synthetic drugs on the human body, social environment and economic system, as well as the importance of research on herbal and synthetic drugs and substances. The topic of modern methods is covered.

KEY WORDS: herbal drugs, synthetic drugs, Cannabis sativa, Cannabis resin (Hashish), Opium, psychopharmacological approach, biological approach, social and economic approach, methamphetamine, fentanyl.

KIRISH

Giyohvand moddalar va ularning zararli ta'siri jamiyatda juda katta ahamiyatga ega bo'lib, bu muammo nafaqat xalqaro, balki mamlakatlar o'rtasida, global miqyosda dolzarbdir. O'simlik va sintetik giyohvandlik vositalari inson organizmi, ijtimoiy muhit va iqtisodiy tizimga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ularni o'rganish va tadqiqotlar o'tkazish, bu moddalar bilan kurashish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi.

Giyohvand moddalar jamiyat hayotiga bir nechta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning ta'siri nafaqat individual darajada, balki jamiyatning turli qatlamlari, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlariga ham tarqaladi. Quyida giyohvandlik vositalarining jamiyatga ta'siri haqida ba'zi asosiy jihatlar haqida gapirib o'tsak:

1. Salomatlikka ta'siri

Jismoniy va ruhiy sog'liq: giyohvand moddalar odamning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Ular organizmda turli kasalliklarni (yurak kasalliklari, jigar muammolari, infeksiyalar) rivojlantirishi mumkin. Ruhiy holatni yomonlashtirishi, depressiya, shizofreniya va boshqa ruhiy kasalliklarni keltirib chiqaradi.

O'lim va nogironlik: giyohvand moddalarni iste'mol qilgan odamlarning hayot sifati yomonlashadi, ba'zan ularning inson sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi natijasida o'limga olib keladi. Giyohvand moddalarning ortiqcha iste'moli esa, insonda nuqsonlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Giyohvandlik nogironlikni ham yuzaga keltiradi.

2. Ijtimoiy muammolar

Oila va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri: giyohvandlik oila ichidagi munosabatlarga zarar keltiradi. Giyohvand moddalar iste'mol qiladigan odamlar ko'pincha o'zlariga nisbatan ehtiyotsiz bo'lib, oila a'zolariga nisbatan zo'ravonlik, turli xildagi kelishmovchiliklarning vujudga kelishi va majburiyatlarga e'tibor bermaslik holatlarini yuzaga keltiradi.

Jinoyatchilik: giyohvandlik jinoyatchilikning darajasi va dinamikasini oshirishi mumkin. Giyohvand moddalarni sotib olish uchun odamlar ko'pincha

jinoyatga qo‘l uradilar (o‘g‘irlash, zo‘ravonlik, narkotik savdosi). Bu jamiyatning xavfsizligiga tahdid soladi.

Ijtimoiy ajralish: giyohvand moddalar iste'mol qilgan odamlar jamiyatdan ajralib qolishi, ish joylarini yo‘qotishi va ijtimoiy tarmoqlardan chetlashishi mumkin.

3. Iqtisodiy ta'sir

Sog‘liqni saqlash xarajatlari: giyohvandlik jamiyat uchun katta moliyaviy yuk yaratadi. Kasalxonalarda giyohvandlar bilan shug‘ullanish, ularni davolash va rehabilitatsiya qilish uchun katta mablag‘ sarflanadi.

Ishsizlik va mehnat unumdorligining pasayishi: giyohvandlik tufayli odamlar o‘z ishlarini yo‘qotishi yoki samarali ishlay olmasligi mumkin. Bu iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko‘rsatadi, mehnat bozoridagi ishsizlikni oshiradi.

4. Ta'lim tizimiga ta'siri

O‘quvchilarga ta'siri: giyohvandlik ta'limga zarar yetkazadi, chunki giyohvand moddalar iste'mol qilgan talabalar o‘qishga qiziqishlarini yo‘qotishi, diqqatni jamlashda qiynalishi va muvaffaqiyatli o‘qish imkoniyatlari kamayishi kabi salbiy oqibatlariga olib keladi. Bu jamiyatda bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

5. Tashqi ta'sirlar

Xalqaro savdo va noqonuniy tarmoq: giyohvand moddalar savdosi butun dunyo bo‘ylab amalga oshiriladi va ushbu noqonuniy savdo tarmoqlari jamiyatni notinch ahvolga keltirib qo‘yishi mumkin. Bu jamiyatda yashovchi insonlarning hayoti va sog‘ligiga xavf tug‘diradi hamda xalqaro muammolarga olib keladi.

ASOSIY QISM

Giyohvandlik vositalari — maxsus ro‘yxatga kiritilgan va davlat tomonidan nazoratga olingan, giyohvandlikni keltirib chiqaruvchi sintetik vosita (preparat) lar va o‘simliklar. Giyohvandlik vositalari ro‘yxati BMTning 1988-yilgi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyasida, shuningdek giyohvandlik vositalari ustidan nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasining qaroriga (1995-yil 1-aprel) 1-sonli ilovasida berilgan. Giyohvandlik vositalari sirasiga marixuana, nasha, kannabis smolasi, nasha moyi, qoradori, morfin, heroin, kodein, efedron, kokain va boshqalar kiradi.

Giyohvandlik vositalaridan tibbiy maqsadlarda foydalanilganda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibga qat’iy rioya etilishi kerak. Giyohvandlik vositalari bilan erkin muomala qilish taqiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonuniga binoan, ularni veterinariya, ilmiy va o‘quv maqsadlarida, ayniqsa, ekspertlik faoliyatida, jismoniy shaxslarga berish va boshqa maqsadlarda muomalada bo‘lish shartlari va tartibi O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida ham ushbu turdagi moddalar bilan muomalada bo'lish to'g'risida bir qator javobgarliklar belgilab o'tilgan. Jumladan, giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadini ko'zlamay, oz miqdorda, g'ayriqonuniy tarzda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan (O'zR MJK, 56-modda).

O'zbekiston Respublikasi JKda tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan ekinlarni ekish yoki yetishtirish (270-modda), qonunga xilof ravishda egallash (271-modda), o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash, olish, saqlash, tashish, jo'natish (273-modda), giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishga jalb etish (274-modda), ularni ishlab chiqarish yoki foydalanish qoidalarini buzish (275-modda), o'tkazish maqsadini ko'zlamay, qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallash, saqlash va boshqa harakatlar (276-modda) uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

“Giyohvandlik vositasi bo'lgan o'simliklarni ekish”, deyilganda ularning urug'ini maxsus tayyorlangan yerga sepish yoki ko'chatini o'tqazish tushuniladi va shu harakatlarning o'zi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. **“Giyohvandlik vositasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirish”**, deyilganda har qanday yerda ekilgan yoki o'zi unib chiqib, o'sib yotgan shunday o'simliklarni parvarish qilish (sug'orish, chopish, o'g'it berish va hokazo) tushuniladi. **“Giyohvandlik vositalarini konunga xilof ravishda egallash”**, deyilganda ularni o'g'rilik, firibgarlik, o'zlashtirish, talonchilik, mansabni suiste'mol qilish, tovlamachilik, bosqinchilik kabi yo'llar bilan egallash tushuniladi. Giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlagan, olgan, saqlagan, tashigan shaxs, agar shunday harakatni birinchi marta sodir etgan bo'lsa va ularning miqdori ko'p bo'lmasa, o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olib kelib, giyohvandlik vositalarini topshirsa, jazodan ozod qilinadi (273-modda). Giyohvandlik vositalarining qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga yo'l qo'ygan yuridik shaxs sudning qaroriga binoan tugatilishi mumkin.

Giyohvandlik, narkomaniya, bangilik – narkotik moddalarga o'rganib qolish, ruju qo'yish, aniqrog'i tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori moddalari)ni vaqtincha yoki surunkasiga iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati hisoblanadi. Giyohvandlik organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o'zgarishiga sabab bo'ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Giyohvandlikda o'zini to'xtatib bo'lmaydigan darajada giyohvand moddalarni iste'mol qilish mayli paydo bo'ladi, giyohvand moddaning miqdoriga nisbatan ehtiyoj, ruhiy va jismoniy bog'liqlik ortib boradi.

Giyohvandlik asta-sekin boshlanib, surunkali davom etadi. Giyohvand moddalar dastlab xushnudlik, dimog'chog'lik, xotirjamlik hissini uyg'otadi, keyin bora-bora bu kasallikka aylanadi. Birinchi holda tibbiyot xodimi buyurgan va

bemorning ruhi hamda kayfiyatini oshirish xususiyatiga ega bo'lgan dorilarni uzoq vaqt va noto'g'ri qabul qilish, og'riq, uyqusizlik va boshqa dardlardan qutilish maqsadida dori miqdori (dozasi)ni oshirib boorish, darddan tuzalib doriga unchalik ehtiyoj bo'lmasa ham, uni qabul qilaverish natijasida dorining narkotik ta'siri va miqdori orta borib, pirovardida giyohvand moddaga moyillik kuchayib, u xumor qiladigan bo'lib qoladi. Ikkinchi hol ongli ravishda rohat qilish maqsadida giyohvand moddalarga o'rganishdir.

Giyohvandlikka, odatda, irodasi kuchsiz, o'zini tiya olmaydigan, o'tkir sezgilarni o'zida sinab ko'rishga qiziquvchan, ruhan zaif va o'ta xudbin kishilar beriluvchan hamda moyil bo'ladi. Yoshlar tarbiyasidagi nuqson va kamchiliklar, giyohvand moddalarni iste'mol qilib yuruvchi katta yoshdagilarga taqlid va havas, oiladagi noxush sharoit (ota-onaning ichkilikboz yoki giyohvand bo'lishi) hamda giyohvand moddalarning oson topilishi yoki qo'l ostida bo'lishi ham giyohvandlikka sabab bo'lishi mumkin. Giyohvandlikka muhtalo bo'lganlarda xastalik borgan sari kuchaya borib, odatda, kutilmagan yomon oqibatlariga olib keladi.

Giyohvandlik eyforiyasida, ya'ni rohat chog'likda 2 bosqich kuzatiladi: qisqa muddatli —1-5 daqiqa davom etadigan o'tkir hissiyotli bosqich (haqiqiy eyforiya) va uzoq (1—3 soat) cho'ziladigan bo'shashish, tinchlanish davri. Bu bosqichlarning qisqa yoki uzoq bo'lishi qanday giyohvand modda qabul qilinganiga va miqdoriga bog'liq. Giyohvandlikning barcha turi o'z rivojida giyohvand moddalarga o'rganib qolish yo'li bilan giyohvandlik sindromining shakllanishiga olib keladi.

Bu sindromning rivojlanishida ham 3 bosqich farqlanadi: 1) giyohvand moddaga nisbatan organizm reaktivligining o'zgarishi va ruhiy bog'lanishning paydo bo'lishi; 2) xumor (abstinent) sindromi ko'rinishida jismoniy bog'lanishning yuzaga kelishi; 3) organizm barcha sistemalarining zaiflashishi (tolerantlikning pasayishi, ya'ni giyohvand moddalarning avvalgi miqdorini ko'tara olmaslik, xumorning surunkali davom etishi va ayrim hollarda polinarkomaniya ning vujudga kelishi).

Giyohvandlikka muhtalo bo'lgan kishi giyohvand moddalarni qayta-qayta va ko'proq miqdorda iste'mol qila boshlaydi. Keyinchalik esa giyohvand moddalarsiz turolmaydigan bo'lib qoladi. Bunday ahvoldan qutilish va o'zini bir oz yengil his qilish uchun yana giyohvand moddaga ruju qiladi va oxir-oqibat giyohvand moddalarga hirs qo'yish kelib chiqadi. Organizmning dastlabki himoya reflekslari (ko'ngil aynishi, qusish) yo'qoladi. Bu davrda organizmda giyohvand moddalarga nisbatan moyillik shu darajada kuchayib ketadiki, go'yo bu moddalar avvalgi ta'sir kuchini yo'qotgandek bo'lib qoladi, endi avvalgidek eyforiya (kayf) holatini his qilish, xumorni tarqatish uchun o'sha moddadan ko'proq miqdorda qabul qilgisi keladi.

Oldiniga giyohvand modda birmuncha yoqimsiz ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, keyinchalik go'yoki uning holatini "normallashtirganga" o'xshaydi, bemor o'zini birmuncha yaxshi his qiladi, ish qobiliyati, ruhi go'yo tetiklashadi, pirovardida u

haqiqiy giyohvand bo‘lib qoladi. Giyohvandlarda avval ruhiy o‘zgarishlar (tajanglik, kayfiyat buzuvchiligi, xotira pasayishi) paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik jismoniy o‘zgarishlar —jismoniy bog‘lanib qolish sindromi (terlash, yurak urishi, og‘iz qurishi, ozib ketish, qo‘l-oyoqning titrashi va boshqalar) ro‘y beradi.

Agar giyohvand o‘z vaqtida narkotik moddani qabul qilmasa, organizmda kuchli ruhiy va jismoniy o‘zgarishlar, ya’ni giyohvandlikka xos og‘ir holat – xumorlik sindromi paydo bo‘ladi. Giyohvandlik opiomaniya (afyun qabul qilish), morfinizm, heroinizm ko‘rinishida bo‘ladi. Giyohvandlikning nashavandlik, kokainizm, nikotinizm (tamakiga ruju qilish), teizm (achchiq choy ichish) va boshqa turlari ham uchraydi. Ikki yoki undan ortiq xil giyohvand moddani surunkali qabul qilish — polinarkomaniya deyiladi. Giyohvand moddalarning hamma turida ham organizm zaharlanadi va u juda og‘ir kechadi.

Yer yuzining turli mintaqalarida giyohvandlikning ayrim turlari kuzatiladi. Giyohvandlikning heroinizm turi keyingi vaqtda juda keng va fojiali tarzda tarqalib bormoqda. Giyohvandlik avj olishining oldini olish uchun ayrim mamlakatlarda tegishli tadbirlar amalga oshirilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlikka qarshi kurash qo‘mitasi tashkil qilinib, davlat dasturi ishlab chiqilgan. Respublikada narkologiya markazi tashkil qilingan va bu markazda narkologiya bo‘yicha olim va mutaxassislar tomonidan malakali kadrlar tayyorlanib, ular mamlakat mintaqalarida giyohvandlikka qarshi keskin kurash olib boradi.

Giyohvandlikka muhtalo bo‘lgan bemorlar asosan shifoxona (statsionar) sharoitida 2—4 oygacha davolanib, 4—5 yilgacha ambulatoriya kuzatuv va hisobida bo‘ladilar.

O‘simlik giyohvandlik moddalari

O‘simlik giyohvandlik moddalari, tabiiy manbalardan olingan moddalar bo‘lib, ularning tarkibida psixoaktiv birikmalar mavjud. Bunday moddalar orasida eng mashhurlari:

Mariya (*Cannabis sativa*) — o‘simlikdan olingan psixoaktiv moddalar, eng ko‘p tarqalgan o‘simlik giyohvandlik vositasidir.

Gashish (*Cannabis resin*) — mariyadagi faol moddalar, ko‘proq qattiq shaklda tarqatiladi.

Opium (*Papaver somniferum*) — opiatlar oilasiga mansub bo‘lib, og‘riqni kamaytiruvchi xususiyatga ega.

Sintetik giyohvandlik moddalari

Sintetik giyohvandlik vositalari kimyoviy yo‘l bilan ishlab chiqarilgan psixoaktiv moddalar bo‘lib, ular tezroq ta’sir ko‘rsatadi va ko‘p hollarda narkomanlikni tez rivojlantiradi. Ular orasida:

Metamfetamin (meth) — markaziy asab tizimini stimulyatsiya qiluvchi moddadir.

MDMA (Ecstasy) — ruhiy holatni o'zgartirishga xizmat qiluvchi sintetik modda.

Fentanil — kuchli og'riqni kamaytiruvchi va ko'plab o'limlarga olib keluvchi modda.

Sintetik moddalar ko'pincha narkotiklarni qidirayotgan shaxslar tomonidan ishlatiladi va tezda jismoniy va psixologik qaramlikka olib keladi.

Tadqiqotlar o'tkazishning nazariy jihatlari

Giyohvandlik vositalarini tadqiq qilishda bir nechta nazariy yondashuvlar mavjud. Ular orasida:

Psixofarmakologik yondashuv — moddalar va ularning ta'siri, nerv tizimiga bo'lgan o'zgarishlar, moddalar qanday qilib asab tizimiga ta'sir etishi o'rganiladi.

Ijtimoiy va iqtisodiy yondashuv — giyohvandlikning jamiyatdagi o'rni, uning ijtimoiy, iqtisodiy oqibatlari, narkomanlikka olib keladigan omillar tahlil qilinadi.

Biologik yondashuv — giyohvandlikka moyillikning genetika, organizmning biokimyoviy holati va fiziologik omillar bilan aloqasi o'rganiladi.

Tadqiqotlarning amaliy ahamiyati

O'simlik va sintetik giyohvandlik vositalari bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar nafaqat ilmiy nuqtai nazardan, balki ijtimoiy va tibbiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar:

- giyohvandlikka qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi;
- narkotiklar va narkomanlikning jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy zararlarini kamaytirish imkoniyatlarini yaratadi;
- giyohvand moddalar bilan bog'liq muammolarga qarshi profilaktika tadbirlarini samarali o'tkazish imkonini beradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'simlik va sintetik giyohvandlik vositalari jamiyat uchun jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu moddalar insonning jismoniy va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga, ular narkomanlikka olib kelishi va odamlarning hayot sifatini jiddiy ravishda pasaytirishi mumkin. O'simlik giyohvandlik vositalari (masalan, marihuana, opium) va sintetik giyohvand moddalar (masalan, metamfetamin, MDMA, fentanil) orasida ta'sir va zararlar nuqtayi nazaridan farqlar mavjud, lekin har ikkala guruh ham narkotiklarni qidirayotgan va psixoaktiv moddalarga qaram bo'lishga moyil bo'lgan shaxslar tomonidan ishlatiladi.

Giyohvandlik moddalarining jamiyatga salbiy ta'siri nafaqat bevosita sog'liqni saqlashga, balki ijtimoiy muhitga ham jiddiy zarar yetkazadi. Giyohvand moddalar nafaqat psixologik va jismoniy qaramlikni keltirib chiqaradi, balki iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy oqibatlarga ham olib keladi. O'simlik va sintetik giyohvandlik vositalarini tadqiq qilish orqali ularning ta'sirini yaxshiroq tushunish va kurashish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqotlar bu moddalar bilan kurashishning yangi usullarini yaratishda, ularning jamiyatdagi salbiy ta'sirlarini kamaytirishda, profilaktika va reabilitatsiya jarayonlarini samarali o'tkazishda katta ahamiyatga ega. O'simlik va sintetik giyohvandlik moddalarini o'rganish nafaqat giyohvandlikning tibbiy jihatlarini, balki uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini ham aniqlash imkonini beradi.

Yuqori sifatli ilmiy tadqiqotlar orqali, giyohvandlikka qarshi kurashishning samarali usullari ishlab chiqilishi mumkin, bunda biokimyoviy, psixologik, ijtimoiy va siyosiy yondashuvlar birlashtiriladi. Giyohvandlikka qarshi kurashish faqatgina individual darajada emas, balki butun jamiyatning birgalikda harakat qilishini talab qiladi. Shu bois, davlat organlari, tibbiyot xodimlari, psixologlar va boshqa mutaxassislar o'rtasida hamkorlikda amalga oshiriladigan tadqiqotlar va dasturlar jamiyatda giyohvandlikka qarshi samarali kurash olib borishning asosi bo'ladi.

O'simlik va sintetik giyohvandlik vositalariga qarshi kurashishda kelajakda zamonaviy va integratsiyalangan yondashuvlar, shu jumladan ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan yangiliklar, innovatsion metodlar va profilaktik choralar joriy etilishi kerak. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatni giyohvandlikning salbiy ta'siridan himoya qilishga yordam beradi va kelajakda bu muammoga qarshi kurashishda muvaffaqiyat qozonish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi* (2000-2005)
2. Francis Edmund. *Stimulants and Narcotics, Their Mutual Relations: With Special Researches on the Action of Alcohol, Aether and Chloroform on the Vital Organism*
3. 1999-yil 19-avgustdagi „Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.

Foydalanilgan internet saytlari:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Giyohvandlik_vositalari
2. <https://med24.uz/uz/bolezni/narkomaniya>
3. <https://sudex.uz/?p=7478>